



E-ISSN 2181-1466  
9 772181146004



ISSN 2181-6875  
9 772181687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1


www.buxdu.uz

**3/2024**

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



## **BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**



**3/2024**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2024, № 3, mart**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rareva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'yumurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Qybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS**

**MATEMATIKA \*\*\* MATHEMATICS \*\*\* МАТЕМАТИКА**

<b>Болтаев З.И., Собиров С.Ж., Рўзиева М.А.</b>	Неосесимметричные задачи стационарного напряжённого состояния соосных вязкоупругих оболочках с жидкостью между ними	<b>3</b>
<b>Ergashov O.H.</b>	Simpleksni saqlovchi kvadratik operator qo‘zg‘almas nuqtalarning tipini aniqlash usullari haqida	<b>11</b>
<b>Джураева У.Ю.</b>	О некоторой теореме для бигармонических функций	<b>16</b>
<b>Jamolov Sh.J., Rahmonov E.S.</b>	Kvadratik stoxastik operatorlar	<b>21</b>
<b>Ro‘ziyeva N.K.</b>	Kvadrat funksiyani yechish usullari	<b>26</b>
<b>Ergashov O.H.</b>	Bir nostoxastik kvadratik operator qo‘zg‘almas nuqtalari haqida	<b>33</b>
<b>Almuratov F.M., Pardabaev M.A., Bobonazarova A.U.</b>	Expansion of eigenvalues of schrödinger-type operators on two dimensional lattices	<b>38</b>
<b>Eshbekov R.Kh., Teshaeva M.G., Usmonova Sh.B.</b>	On the complex modified korteweg-de vries equation with finite density	<b>46</b>
<b>Сипатдинова Б.К.</b>	Об одной периодической краевой задаче для трёхмерного уравнения смешанного типа второго рода второго порядка в неограниченном параллелепипеде	<b>55</b>

**FIZIKA \*\*\* PHYSICS \*\*\* ФИЗИКА**

<b>Элманов А.Б., Кенгбоев С.А.</b>	Увеличение срока службы детали для промышленных хлопкоочистительных машин	<b>64</b>
<b>Abdullahayev J.Sh., Sapaev I.B.</b>	The effects of temperature on the intrinsic electrophysical parameters of ge, si, and gaas	<b>68</b>
<b>Turayev A.A., Kamolova O.A.</b>	Polikristall yarimo‘tkazgich olishning ahamiyati	<b>74</b>
<b>To‘rayev Sh.D., Norqulov U.E.</b>	O‘zgaruvchan tok tarmog‘ida kollektorli dvigatellardan foydalanish	<b>78</b>
<b>Xujaqulov N.B., Urunov B.J., To‘uchihev A.J.</b>	Gidrotexnika inshootlarida nasos agregatini foydalanishga tayyorlash, ishga tushirish va topshirish sinovlari	<b>83</b>
<b>Xujanova D.Sh., Xujanov A.Sh.</b>	Kremniy asosidagi gibrit strukturalar	<b>88</b>
<b>Элманов А.Б.</b>	Важнейшее технологическое эксплуатационное свойство швейного материала и растяжимая деформация нити в кольце	<b>94</b>
<b>Kengboyev S.A.</b>	Texnologik asbob-uskunalar qismlarini elektron nur bilan azotlash bo‘yicha tadqiqot(yuqori sifatli u9a po‘lat)	<b>100</b>

<b>KIMYO *** CHEMISTRY *** КИМЁ</b>		
<b>Ergasheva N.M.</b>	Kristallarda modulyastiyalangan magnitli strukturalarni modellashtirish usullari	<b>106</b>
<b>Содиков М.К., Эргашев Л.Б., Турсунов Д.Ж.</b>	Ацетилен спиртлари эфирларнинг синтез жараёнлари натижаларини моделлаштириш ва физик-кимёвий ҳисоблашлар	<b>112</b>
<b>Xudoynazarova G.A.</b>	Polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari	<b>118</b>
<b>BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ</b>		
<b>Тўхтаев Ш.Х.</b>	Олтингугурт препаратлари ва токни хар хил касалликларига қарши янги кураш чоралари	<b>124</b>
<b>Xolmurodov B.B., Uzakova Sh.I., Suyunova L.A.</b>	Экстракция веществ из растения alhagi maurorum (верблюжья колючка) и применение в фармакологии	<b>131</b>
<b>INFORMATIKA *** INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА</b>		
<b>Nurulloyev F.N., Zikirova F.M.</b>	Python dasturlash tilida doubly linked listdan foydalanish	<b>138</b>

**POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH USULLARI**

*Xudoynazarova Gulbahor Akiyevna,  
Buxoro davlat universiteti professori,  
kimyo fanlari nomzodi  
[g.a.xudoynazarova@buxdu.uz](mailto:g.a.xudoynazarova@buxdu.uz)*

**Annotatsiya.** Maqolada oliv ta'limda Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanidan "Polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari" mavzusini o'tish uslubiyoti havola qilinadi, ya'ni eritmalarining qovushqoqligini aniqlash usuli orqali polimerning molekulyar massasini hisoblash haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** molekulyar massa, o'rtacha molekulyar massa, eritmalarining qovushqoqligi, nisbiy qovushqoqlik, polidisperslik, makromolekulalarning o'lchami, polimerlanish darajasi, viskozimetr

**МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ МОЛЕКУЛЯРНОЙ МАССЫ ПОЛИМЕРОВ**

**Аннотация.** В данной статье приведена методика преподавания темы «Методы определения молекулярной массы полимеров» по химии высокомолекулярных соединений в высшем образовании, то есть даются сведения о расчете молекулярной массы полимера по методу определения вязкости растворов.

**Ключевые слова:** молекулярная масса, средняя молекулярная масса, вязкость растворов, относительная вязкость, полидисперсность, размер макромолекул, степень полимеризации, вискозиметр.

**METHODS FOR DETERMINING THE MOLECULAR MASS OF POLYMERS**

**Abstract.** This article refers to the methodology of passing the topic "Methods for determining the molecular mass of polymers" from the science of chemistry of high molecular compounds in higher education, that is, information is given about the calculation of the molecular mass of a polymer by the method of determining the viscosity of solutions.

**Keywords:** molecular mass, average molecular mass, viscosity of solutions, relative viscosity, polydispersity, size of macromolecules, degree of polymerization, viscometer

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyuldaggi PF-5763 son "Oliy va o'rta maxsus ta'limga boshqaruvni isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ta'limga yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarni joriy etishning xalqaro tashkil etish, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborot – kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatdan yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir"

Ta'limga tizimini tubdan isloq etish o'quvchi – yoshlarmizning ongi tafakkur va dunyoqarashini o'zgartirish, kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylantirishda o'qituvchilarining ham hissasi katta hisoblanadi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni, uzlaksiz ta'limga tizimi xodimlari, pedagog – o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'limga texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'limga jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'limga jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoniga asosan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasining IV yo'naliishi - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'naliislari bosqichida uzlaksiz ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'limga xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'limga o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'limga muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'limga muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish masalariga alohida e'tibor qaratilgan.[1-5]

## CHEMISTRY

Har bir davlatning kelajagini har tomonlama yetuk, barkamol avlod quradi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonimiz kelajagini quruvchi yoshlarni bilimli, yuksak madaniyatli qilib tarbiyalash doimo dolzARB muammo va vazifadir.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini pedagogik faoliyati davomida rivojlanТИRIB borish hamda ishlab chiqarish jarayoniga tadqiq etish malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish fan o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Quyidagi Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanidan polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari mavzusini o‘tish uslubiyoti havola qilinadi.

Yuqori molekulyar birikmalarning ularni quyi molekulyar moddalardan farq qiluvchi asosiy xususiyatlaridan biri katta molekulyar massaga egaligidir. Molekulyar massa polimerlar uchun eng muhim doimiylik bo‘lib, har bir yuqori molekulyar birikmaga to‘liq tavsif berish uchun zarur ko‘rsatgichdir.

Polimerlarni qayta ishlash va ularni ekspluatatsiya qilish jarayonida sodir bo‘luvchi o‘zgarishlarni molekulyar massa orqali aniqlash mumkin.

Molekulyar massa birikmaning oquvchanlik harorati chegarasini, bo‘kish va eruvchanlik kabi xossalarni belgilaydi. Uning qiymatini polimerlarning mexanik xossalari, jumladan mustahkamlik, deformatsiyalanish va elastiklikka katta ta’sir ko‘rsatadi.

Quyi molekulyar birikmalarga xos molekulyar massa, ularga oid oddiy va aniq tushunchalar yuqori molekulyar birikmalarga nisbatan nihoyatda murakkablashadi. Chunki ular o‘zlariga xos bir qancha xususiyatlarga, jumladan, faqat polimerga xos polidisperslikka ega.

Polimerlarning fizik va kimyoviy xossalari asosan makromolekulalarning o‘lchami hamda kimyoviy tuzilishi, shuningdek ularning agregatlanish xususiyatlari – ikkilamchi strukturasi bilan aniqlanadi.

Polimer o‘rtacha molekulyar massasining (polimerlanish darajasining) ortishi tolalarning pishiqlik hamda bo‘shashish xususiyatlarini oshiradi.

Polimerlar makromolekulalarining shakli hamda molekulyar massasiga ko‘ra bir jinsli bo‘lmagan sistemadan iborat. Bunday fizik-kimyoviy jixatidan har xillik polimerlarni sintez qilish va tozalash sharoitlari bilan bog‘liq.

Polimerlarning molekulyar massasini aniqlashning quyidagi usullari mavjud:

I. Polimerlarning molekulyar massasini aniqlashning fizikaviy usullari

1. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning ebulioskopik usuli
2. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning krioskopik usuli
3. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning izotermik distillanish usuli
4. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning osmometrik usuli

II. Polimerlarning molekulyar massasini aniqlashning kimyoviy usullari

1. Chekka guruhlarni aniqlash usuli
  2. Polimer tarkibidagi funksional guruhlarni aniqlash usuli bilan molekulyar massani topish
- III. Polimerlarning molekulyar massasini aniqlashning gidrodinamik usullari
1. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning viskozimetrik usuli
  2. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning diffuzion usullari
  3. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning ultratsentrifugalash usuli
  4. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning nurni tarkalish usuli
  5. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning asimmetrik usuli
  6. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning ketma- ket ikki marta ekstrapolyasiyalash usuli
  7. Polimerlarning shishalanish va oqish xaroratiga asoslanib molekulyar massasini aniqlash

Quyida eritmalarining qovushqoqligini aniqlash usuli orqali polimerning molekulyar massasini hisoblash uslubiyotini havola etiladi.

Polimerlarning molekulyar massasini aniqlashning eng qulay va oddiysi bu viskozimetrik usul hisoblanadi. Nemis olimi Shtaudinger tomonidan yuqori molekulyar birikmalar molekulyar massasining kattaligiga va makromolekulaning shakliga eritmalar qovushqoqlikning bog‘liqligini aniqlagan. Bunda eritmada barcha makromolekulalar qat’iy holda chiziqli shaklda, silindr ko‘rinishda bo‘ladi. Ko‘rsatilgan bog‘liqlik quyidagi tenglama bilan izohlanadi:

$$M = \frac{\eta_{HUC} - 1}{KC}$$

## CHEMISTRY

Bunda  $\eta_{nis}$ - nisbiy qovushqoqlik, K – berilgan polimer uchun tavsifli bo‘lgan doimiylik, C – molyar konsentratsiya, mol/l.

K ning qiymati makromolekulaning o‘ziga xos kimyoiy tuzilishida namoyon bo‘ladi va bu ma’lum erituvchidagi ayni polimer uchun doimiy hisoblanadi. Nisbiy qovushqoqlik – ( $\eta_{nis}$ )- eritmaning oqib o‘tish tezligining erituvchining oqib o‘tish tezligiga teng. Oqib o‘tish tezligini viskozimetrik asbobida aniqlanadi.

Biz laboratoriya mashg‘ulotida bir necha polimerning viskozimetrik usul orqali molekulyar massasini aniqladik. Quyida polimetilmekrakrilat, polistirol va tabiiy kauchukning molekulyar massasini aniqlashning uslubiyoti keltirilgan.


### *Polimetilmekrakrilatning molekulyar massasini aniqlash*

Polimetilmekrakrilatning molekulyar massasini aniqlash uchun 2 ta laboratoriya mashg‘uloti o‘tkazildi.

#### *Birinchi laboratoriya mashg‘uloti*

Talabalarga yuqori molekulyar birikmalarining eritmalari to‘g‘risida qisqacha tushuntiriladi, qovushqoqlik bilan molekulyar massa orasidagi bog‘liqligiga ko‘proq to‘xtaladi. So‘ngra viskozimetrik asbobning tuzilishi va texnik ishlashi tushuntiriladi.

Ostvald viskozimetri U- simon shisha trubkadan iborat (rasmida ko‘rsatilgan) trubkaning bir tomoni kengaytirilgan, ikkinchi tomonida esa 0,6- 1,0 mm diametrli kapillyar o‘rnatalgan. Kapillyarning bosh qismida 2-3 ml hajmli kengaytirilgan sharsimonga tutashtirilgan. Sharsimonli kengaymaning yuqori va pastki qismi belgilangan (A va B) kengaytirilgan shisha nayning ostida hajmi uncha katta bo‘limgan trubka biriktirilgan. Viskoziometr  $20^{\circ}\text{C}$  haroratdagi suvli termostatga o‘rnataladi.



Ostwald viskozimetri

Kengaymaga 12 ml erituvchi, masalan, benzol quyiladi (bu qism erituvchi bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak) Shisha nayga rezina nokni biriktirib, u orqali sharikning A belgisigacha erituvchi ko‘tariladi. Bunda kapillyarda havo pufakchalari hosil bo‘lmasligi lozim. (Umuman olganda suyuqlikning og‘iz bilan tortmaslik kerak, aks holda ko‘ngilsiz hodisa ro‘y berishi mumkin, chunki ko‘pgina erituvchilar zaharli)

Rezina nokni olgandan so‘ng, benzol viskozimetrining kengaygan qismiga quyilishini kuzatamiz. Qachonki, suyuqlik (A) belgining yuqori qismiga tushganda sekundamer ishlatiladi va erituvchining ikkinchi hajmi (B) belgining quyi qismiga etguncha vaqt belgilanadi. Sekundamer to‘xtatilib, natija yozib olinadi. Jarayon 3-4 marta takrorlanadi va o‘rtacha qiymat olinadi. Masalan: I natija – 94,5 sek; II natija – 94,6 sek; III natija – 94,7 sek. O‘rtacha vaqt – 94,6 sek.

So‘ngra viskozimetrik suvli idishdan olinadi, erituvchi boshqa idishga quyiladi, asbob yuviladi va quritgich shkafida quritiladi.

Shu laboratoriya mashg‘ulotda talabalar polimetilmekrakrilatning 1% li benzoldagi eritmasini tayyorlaydilar. Buning uchun toza va quriq kolba olinib, unga 0,2 g polimetilmekrakrilat solinadi va ustiga 20 ml benzol quyiladi, tiqin bilan og‘zi bekilib, 3,0- 3,5 soat davomida xona haroratida qoldiriladi.

#### *Ikkinchi laboratoriya mashg‘uloti*

Talabalar birinchi laboratoriya mashg‘ulotida erituvchining oqib o‘tish tezligini bajarganidek, polimetilmekrakrilat eritmasining ham oqib o‘tish tezligi vaqtini aniqlaydilar. (termostatdagi harorat erituvchi va eritma uchun bir xil bo‘lishi lozim)

## CHEMISTRY

Nisbiy qovushqoqlik hisoblanadi va topilgan qiymat tenglamaga qo‘yilib, molekulyar massa aniqlanadi

Laboratoriyada olingan polimetilmekrilatning molekulyar massasini hisoblashlarini keltiramiz:

Eritmaning oqib o‘tish vaqt: 235,8 sek (o‘rtacha qiymat)

$$\eta_{nuc} = \frac{t_1}{t_0} = \frac{235,8}{94,6} = 2,493 \quad K = 2,4 * 10^{-4}$$

$$M = (\eta_{nuc} - 1) \cdot \frac{1}{KC} = (2,493 - 1) \cdot \frac{1}{2,4 \cdot 10^{-4} \cdot 0,1} = (2,493 - 1) \cdot \frac{10000}{0,24} = 62208,3$$

### ***Polistirolning molekulyar massasini aniqlash***

Polistirolning benzoldagi 1% li eritmasi tayyorlanadi. (0,2 g polistirolga 20ml benzol solib, 3 soat qoldiriladi) Ayrim talabalar xuddi shu yo‘l bilan blok polistirol (sanoatda olingan polistirol), qolgan talabalar esa emulsion polistirol (laboratoriyada olingan polistirol) eritmalarini tayyorlaydilar.

Eritmaning oqib o‘tish vaqt: 220,5 sek (o‘rtacha qiymat)

$$\eta_{nuc} = \frac{220,5}{94,6} = 2,330 \quad K = 4,17 * 10^{-4}$$

$$M = (2,330 - 1) \cdot \frac{1}{4,17 \cdot 10^{-4} \cdot 0,096} = (2,330 - 1) \cdot \frac{10000}{4,17 \cdot 0,096} = 33250$$

### **[η]=KM<sup>a</sup> tenglamadagi K va α konstantalari**

T.r	Polimerlarning nomi	Elementar bo‘g‘in	Erituvchi	Haro-rat, <sup>0</sup> S	K·10 <sup>-4</sup>	α
1	Polistirol	-CH <sub>2</sub> -CH(C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> )-	Toluol Benzol	25 25	1,28 4,17	0,70 0,60
2	Poliakrilonitril	-CH <sub>2</sub> -CH(CN)-	Dimetil-formamid	20 25	1,75 3,95	0,66 0,75
3	Polivinilatsetat	-CH <sub>2</sub> -CH-   OCOCH <sub>3</sub>	Atseton	50	2,82	0,67
4	Polivinilspirt	-CH <sub>2</sub> -CH(OH)-	Suv DMSO	25 30	5,90 5,95	0,67 0,63
5	Polivinilxlorid	-CH <sub>2</sub> -CH(Cl)-	TGF	20	0,26	0,92
6	Poliizopren Tabiiy kauchuk	-CH <sub>2</sub> -C=CH-CH <sub>2</sub>   CH <sub>3</sub>	Toluol Benzol	25 20	3,60 14,0	0,64 0,50
7	Polimetilmek- Akrilat	-CH <sub>2</sub> -C(CH <sub>3</sub> )-   COOCH <sub>3</sub>	Xloroform Benzol	20 20	0,94 2,40	0,75 0,54
8	Polimetilakrilat	-CH <sub>2</sub> -C(CH <sub>3</sub> )-   COOCH <sub>3</sub>	Benzol	30	0,45	0,78
9	Poliakrilamid	-CH <sub>2</sub> -CH-   CONH <sub>2</sub>	Suv	25	0,631	0,80
10	Lavsan	(COOC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> COOCH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> O-	Krezol	20	38	0,55
11	Sellyuloza	-[C <sub>6</sub> H <sub>7</sub> O <sub>2</sub> (OH) <sub>3</sub> ]n	Mis-ammiakli reaktiv	25	0,85	0,81
12	Polietilen	-[CH <sub>2</sub> -CH <sub>2</sub> -]n	Dekalin n-ksilol	70 80	0,39 1,65	0,74 0,83

## CHEMISTRY

So‘ngra har bir talaba qo‘sishimcha topshiriq oladi, ayrim talabalar sanoatda olingen blok polistirol, ayrim talabalar laboratoriya olingen emulsion polistirolning, boshqalari esa sanoatda olingen emulsion polistirolning molekulyar massasini hisoblaydilar. Masalan,  
Sanoatda olingen blok polistirol M = (3,58 - 1) \* 24980 = 64448,4  
Laboratoriya olingen emulsion polistirol M = (2,33 - 1) \* 24980 = 33223,4  
Sanoatda olingen emulsion polistirol M = (8,7 - 1) \* 24980 = 192346

### ***Tabiiy kauchukning molekulyar massasini aniqlash***

Kauchukning 0,2-0,3% li benzoldagi eritmasi tayyorlanadi. Kolbaga 40-50 mg kauchuk solinadi, unga 20 ml benzol quyiladi va tiqin bilan og‘zi berkitilib 12 soatgacha qoldiriladi.

Kauchukning molekulyar massasini aniqlashdan oldin eritma tarkibidagi erimay qolgan kauchukni ajratib olinadi (paxta orqali filtrlanadi) So‘ngra eritmaning konsentratsiyasi aniqlanadi. Buning uchun eritmadaan 2 ml olinadi va chinni kosachaga solinadi, eritma bug‘latiladi, qoldiq o‘lchanadi hamda 2 ml eritmaning konsentratsiyasi hisoblanadi.

Kauchukning nisbiy qovushoqligi 20°C da aniqlanadi. Molyar konsentratsiyasi va konstantasi ( $1,4 \cdot 10^{-4}$ ) jadvaldan bilgan holda talabalar tabiiy kauchukning molekulyar massasini hisoblaydilar.

Eritmaning oqib o‘tish vaqt: 118,4 sek (o‘rtacha qiymat)

$$\eta_{_{HUC}} = \frac{118,4}{94,6} = 1,298 \quad K = 1,4 \cdot 10^{-4}$$

$$M = (1,298 - 1) \cdot \frac{1}{1,4 \cdot 10^{-4} \cdot 0,193} = 11028,87$$

Tavsiya etilayotgan uslubiyot 2.1.kim 21 kimyo ta’limi yo‘nalishi guruhida tadbiq etildi. Guruhda 24 nafar talaba bo‘lib, talabalar 4 ta guruhchalarga bo‘lindi. SHundan 3 ta guruhchada noan‘anaviy va 1 ta guruhda esa an‘anaviy tarzda ya’ni [4] manbada keltirilgan uslubiyot asosida o‘tkazildi. I guruhcha talabalariga «Polimetilmekrilitning molekulyar massasini», II guruhcha talabalariga «Polistirolning molekulyar massasini», III guruhga «Tabiiy kauchukning molekulyar massasini» va IV guruhchaga esa an‘anaviy tarzda polimerning molekulyar massasi aniqlash topshirildi.

Tajriba jarayonida shu narsa kuzatildiki, I, II va III guruhcha talabalar iishini tez va aniq kilib polimerlarning molekulyar massalarini aniqlashdi. IV guruhcha talabalar esa tajribani bajarish uchun ko‘p vaqt sarflab, murakkab tenglama asosida polimerning molekulyar massasini aniqlashda ancha qiyinchilikka duch kelishdi.

Topshirilgan tajribalar bajarib bo‘lingach, guruh talabalaridan hisobot qabul qilinganda, laboratoriya mavzusini o‘zlashtirish I, II va III guruhchada o‘rtacha 70-87% ni tashkil etgan bo‘lsa, IV guruhcha talabalarning o‘zlashtirishi 65% ga teng bo‘ldi.

Viskozimetrik usulda polimer eritmalari qovushqoqligini aniqlash yordamida polimerlarning molekulyar massasini topish laboratoriya mashg‘ulotini o‘tish uslubiyoti yaratildi. Olingen natijalar nihoyatda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular polimerlarning qo‘llanilish sohalarini aniqlashda foydalilanildi.

**Xulosa** qilib aytganda, tavsiya etilgan laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazish uslubiyoti talabalarni polimerlarning molekulyar massasini aniqlash bo‘yicha bilimini oshirishga va amalda tatbiq etishda ko‘nikma hamda malakalarini shakllantirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешта устувор йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг Президенти Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 7 феврал 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Тошкент. 2017 й. 7 февраль, ПФ-4947-сон

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрь “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги ЎРҚ-576-сонли Конуни.

3. 2020 йил 12 августда Президент Шавкат Мирзиёев «Кимё ва биология йўналишиларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижасадорлигини ошириши чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори

4. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 24 июль «Инновацион фаолият тўғрисида»ги ЎРҚ-630-сонли Конуни.

## CHEMISTRY

---

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириши концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-6097-сонли Фармони.
6. Касьянова А.А., Добрынина Л.Е. Лабораторный практикум по физике и химии высокомолекулярных соединений. – М: Легкая индустрия. -1979-с.97-99
- 7.Практикум по высокомолекулярным соединениям. Под ред.проф.В.А.Кабанова – М: «Химия» - 1985. – с.80-113
8. Практикум по химии и физике полимеров. Учеб. Н.И. Аввакумова., Л.А.Бударина, С.М.Дивгун и др. – М: «Химия»- 1997. – с.218-220
- 9.Babaev T.M. Yuqori molekulyar birikmalar. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 528 b.
- 10.T.M.Babayev, M.G.Muxammediyev, D.A.Gafurova, M.Maxkamov, D.N.Shaxidova. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanidan laboratoriya mashg’ulolari. O’quv qo’llamna Toshkent.: Spectrum Media Group, 2022.- 384 b
11. Худойназарова Г.А. Yuqori molekulyar birikmalar fizikasi va kimyosi fanidan laboratoriya mashg’uloti. Buxoro. “Durdona” 2023. - 163 б.
- 12.Худойназарова Г.А., Худойбердиев Ш.Ш. Yuqori molekulyar birikmalar fizikasi va kimyosi.// Бухоро. “Durdona” 2023. - 500 б
- 13.Худойназарова Г.А. Юқори молекуляр бирикмалар кимёси фанини ўқитишида кимё ўқитувчининг касбий компетентлиги. Ўрта маҳсус ва олий таълим тизимида фаолият кўрсатадиган педагог кадрларнинг касбий компетентлигини тақомиллаштириши. Республика илмий – амалий конференция материаллари. Бухоро – 2015. 62-64 бетлар
- 14.Худойназарова Г.А.Синтез сополимеров на основе стирола. Сборник трудов международной научно-практической конференции на тему «Интернационализация и инновация в области высшего образования», посвященная 20-летию Университета дружбы народов имени академика А. Куатбекова и 75-летию заслуженного работника образования Республики Казахстан, к.х.н., профессора К.П. Куатбековой 24-25 октября 2019 . С.449-453
- 15.Худойназарова Г.А., Қодирова З.Қ, Яхшиева И.Р. График органайзерлардан фойдаланган ҳолда “Юқори молекуляр бирикмалар” мавзусини ўқитиши услубиёти. Международный научно-практический журнал “Глобальные науки и инновации 2020: Центральная Азия”. Нур-Султан. Қазахстан. №5(10).II том. Август. 2020 г. С.138-141
- 16.Худойназарова Г.А., Юсупова М.Н., Хайдаров А.А. Экспериментальное определение молекулярной массы полимера в лабораторном практикуме по химии. Universum: химия и биология. Электронный научный журнал. Выпуск 11(77) Ноябр.2020 Часть 1.Москва. С.74-77
- 17.Xudoynazarova G.A.,Ganiyev B.Sh.,Kholikova G.Q.,Aslonova F.S., Rashidova R.O‘. Butilmetakrilatning stirol bilan sopolimeri sedimentatsiyasi va qovushqoqligini o‘rganish “Функционал полимерларнинг фундаментал ва амалий жиҳозлари” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. 2023 й.17-18 марта. Б.361-365